

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 7-dekabr, № 261 (8604) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QIRG‘IZISTON PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

**6-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.**

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qirg‘iziston Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy qutlab, unga mustahkam sog‘liq, farovonlik va katta muvaffaqiyatlar, qardosh qirg‘iz xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Muloqotda ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari muhokama qilindi, bo‘lajak tadbirlar rejasi ko‘rib chiqildi.

Yetakchilar mustahkam do‘stlik rishtalari, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik aloqalariga asoslangan O‘zbekiston — Qirg‘iziston munosabatlari bugun yuqori sur’atda rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Turli darajalarda faol muloqotlar va samarali almashinuvlar davom etmoqda. Tovar ayirboshlash hajmi oshmoqda. Mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda qo‘shma kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston — Qirg‘iziston fondining faoliyati doirasida 11 ta istiqbolli biznes loyihasi moliyalashtirildi.

Hududlararo va madaniy-gumanitar hamkorlik kengayib bormoqda.

Davlat rahbarlari mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashib, infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish muhimligini ta’kidladilar.

**O‘zA.**

## INSON MANFAATLARI ULUG‘LANGAN YURTDA TARAQQIYOT VA FAROVONLIK BO‘LADI




*O‘zbekistonda davlatning xalq irodasini ifoda etishi, inson manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanliklari konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlangan ustuvor qoidalardan bo‘lib, bu bizda davlat hokimiyati xalq irodasidan kelib chiqqanligini va unga bo‘ysundirilganligini anglatadi.*

*Xalq manfaatlarining ustuvorligi va ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash davlatimizning va Konstitutsiyamizning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Buni, avvalo, Asosiy Qonunimizning muqaddimasi va boshqa tarkibiy qismlarida o‘z ifodasini topgan adolat, ma’naviyat, haqiqat va odillik, milliy axloqiy qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalar va tamoyillardan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.*

Darhaqiqat, Konstitutsiyamizning 2023-yil 30-aprelda umumxalq ovoz berish yo‘li orqali yangi tahrirda qabul qilinishi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar mazmun-mohiyatiga ko‘ra insonni ulug‘lash, sha’ni, qadr-qimmatini oshirish va xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan oliyjanob maqsadlarga bo‘ysundirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar zamirida Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topgan eng asosiy maqsad — davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasi dolzarb vazifa qilib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy me’yorlar xalqparvarlik, insoniylik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, ozod va erkin yurtimizda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etishga, fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur” deb ta’kidlashi bejiz emas. Zero, Konstitutsiyaning har bir moddasida xalq manfaatlariga xizmat qilish va inson huquqlarini ro‘yobga chiqarish tushunchalari o‘zaro bog‘lanib ketganki, ularni bir-biridan aslo ajratib bo‘lmaydi.

Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqotda bo‘lish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak. Binobarin, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish, og‘irini yengillashtirish — aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi chinakam xalqchil va demokratik huquqiy hujjat bo‘lib, u tarixan sinalgan umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Haqiqatan ham, mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai — xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi yaratilishida ham, takomillashtirilishida ham eng rivojlangan, taraqqiy topgan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyoti inobatga olingan. Konstitutsiyamiz, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qator hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga va o‘zbek xalqining boy tarixiy tajribasiga asoslangan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning ma’naviy, madaniy meros, milliy tafakkur, muqaddas islomiy qadriyatlar va ko‘p asrlik o‘zbek davlatchiligi tajribasi hamda huquqiy an’analariga asoslangan va bu ijobiy yutuqlarni o‘zida aks ettiradi.

Konstitutsiyamizning bir qancha boblari va moddalari haqiqiy xalq demokratizmi ruhi bilan sug‘orilgan. Masalan, 2-moddada aytilganidek, “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”. 7-moddaga binoan, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi. 9-moddaga binoan, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovoziga — referendumga qo‘yiladi.

Ayniqsa, 13-moddada Konstitutsiyaning xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi yorqin aks ettirilgan. Unga binoan O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. 14-moddada ko‘rsatilganidek, davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

➡ 2

Anjuman

## IQLIM O‘ZGARISHIGA QARSHI KURASHISHDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP28) doirasidagi parlament yig‘ilishida*

Parlamentlararo Ittifoq hamda BAA Federal milliy kengashi tomonidan tashkil etilgan tadbirda atrof-muhit va iqlimning dolzarb muammolarini hal qilish, jumladan, uglerod neytralligi, barqaror energiyaga o‘tish va moslashish borasidagi sa’y-harakatlarni amalga oshirishda parlamentlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Yig‘ilishda parlament muloqoti uchun inklyuziv platforma yaratish, parlament a’zolarining iqlim o‘zgarishiga qarshi milliy va xalqaro miqyosda kechiktirib bo‘lmaydigan sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, konvensiya ishtirokchilari majburiyatlarini amaliy haqiqatga aylantirish masalalariga e’tibor qaratildi, unda dunyo parlamentlari vakillari xalqaro hamkorlik va iqlim o‘zgarishiga doir ilg‘or tajribalarni ilgari surdilar.

Oliy Majlis Senati Raisi o‘z nutqida iqlim o‘zgarishi O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning barcha davlatlari uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta’kidlab o‘tdi.

Orol dengizining qurib qolishi va uning tubida 5,5 mln. gektardan ortiq maydonda ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarayotgan sho‘rlangan Orolqum cho‘li paydo bo‘lishi bunga aniq misol bo‘la olishi ta’kidlandi. Shu bois BMT Bosh Assambleyasi Orol fojiasini hozirgi zamonning global ekologik muammosi sifatida tan olganiga ishtirokchilar e’tiborini qaratdi.

➡ 3

## INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig‘i sifatida “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi.*

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan sodir etgan jinoyati uchun jazoni ijro etish muassasalari va probatsiya organlarida jazo o‘tayotgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan 334 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning 34 nafari asosiy jazodan to‘liq ozod etildi, 249 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 6 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 45 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning 18 nafarini chet el fuqarolari, 23 nafarini ayol, 15 nafarini 60 yoshdan oshgan shaxslar hamda 88 nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

## KONSTITUTSIYA YARATILISHI TARIXIGA DOIR KENG FORMATDAGI ILK KO‘RGAZMA

*Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Konstitutsiyaning yaratilishi tarixiga bag‘ishlangan arxiv hujjatlari ko‘rgazmasi tashkil etildi.*

Tadbir

Mazkur tadbir Konstitutsiyaviy sud, “O‘zarxiv” agentligi va O‘zbekiston Badiiy akademiyasi bilan hamkorlikda mamlakatimiz tarixida ilk bor o‘tkazilgan keng formatdagi ko‘rgazma hisoblanadi.

Uning ochilishida deputatlar, senatorlar, jamoatchilik vakillari, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlar elchilari, boshqa diplomatik vakolatxonalar xodimlari qatnashdi.

Ko‘rgazma ikki tarixiy davrga bo‘lingan holda tashkil etildi. Ya’ni birinchi bo‘limdan 1992-yilda Konstitutsiyaning qabul qilinishi, ikkinchi bo‘limdan esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning yaratilishiga oid jami 100 ga yaqin eksponatlar — hujjatlar va fotomateriallar namoyish qilindi. Bu esa barchada birdek katta qiziqish uyg‘otdi.

➡ 3

Dunyo nigohi

## YANGI O‘ZBEKISTONNING KELAJAGINI KONSTITUTSIYAMIZ ASOSIDA BIRGALIKDA QURAMIZ

*Shu kunlarda mamlakatimizning Asosiy Qonuni — Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 31 yilligi munosabati bilan dunyoning turli nuqtalaridan O‘zbekiston xalqi nomiga samimiy qutlovlar kelyapti. Ayni chog‘da O‘zbekistondan olisda yashayotgan vatandoshlarimiz ham o‘z tabriklarida yurtdoshlarimizga samimiy va iliq tilaklarini bildirmoqda.*

**Ulug‘bek ABDUQAYUMOV,**
**Pekin pedagogika universiteti doktoranti:**

— Biz Xitoydagi vatandoshlar bilan mamlakatimizning muhim sanalarini bayram sifatida muntazam keng nishonlaymiz. Bosh qomusimiz qabul qilingan kun ham biz yoshlar uchun milliy faxr va iftixor tuyg‘usini yana bir bor his etish imkonidir.

Men Xitoyda iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha doktorantura darajasida ta’lim olyapman. Ilmiy izlanishim O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar va ularning ikki tomon uchun muhimligiga qaratilgan.

Maqsadim Xitoy tajribasidan foydalangan holda O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga o‘z hissamni qo‘shish.

**Gulbahor JALILOVA,**
**“Vatandoshlar” jamoat fondining Eyndxoven shahri (Niderlandiya)dagi volontyori:**

— Aziz yurtdoshlarimizni 8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun bilan Niderlandiyada yashayotgan vatandoshlarimiz nomidan chin qalbimdan tabriklayman.

Vatandan olisda bo‘lsak-da bizni himoya qiladigan Konstitutsiyamiz borligidan juda faxrlanamiz. Xorijda yashasak-da, O‘zbekistonimiz muhofazasida ekanligimiz bizga yangi marralarni egallashga kuch bag‘ishlaydi.

Konstitutsiyamiz chet eldagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishda, farovon hayotimizni ta’minlashda adolat tarozisi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Men yangilangan Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ahamiyatini xalqaro tadbirlarda keng targ‘ib etishga bor imkoniyatimni safarbar qilishga tayyorman.

**Farangiz NABIYEVA,**
**Osiyo va Tinch okeani texnologiya va innovatsiyalar universiteti (Malayziya) talabasi:**

— Malayziyada tahsil olayotganimga ikki yildan oshdi. Avvalo, vatandoshlarimizni O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yillik bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlari aniq va ravshan belgilab berilgan.

Mazkur huquqiy hujjatning barcha moddalari fuqarolar manfaatlariga xizmat qilyapti, ayniqsa, Bosh qomusimizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, o‘z iqtidor va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning huquqiy asosi yaqqol o‘z ifodasini topgan. Yangi O‘zbekistonning kelajagini Konstitutsiyamizda belgilangan tamoyillar asosida birgalikda quramiz.

**“Dunyo” AA.**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida

## DOLZARB QONUN LOYIHALARI KO‘RIB CHIQILMOQDA

*Shu kunlarda qo‘mitalarida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid bir qator qonun loyihalari soha mutaxassislari, ekspertlar ishtirokida ko‘rib chiqilyapti. Shuningdek, tegishli qo‘mitalar tomonidan xalq vakillari hamda saylovchilar fikr-mulohazalari va takliflari inobatga olingan holda ayrim qonun loyihalarini yanada takomillashtirish ustida qizg‘in ish olib borilmoqda.*

### Dronlardan noqonuniy foydalanganlik uchun jinoiy jazo choralari yengillashtirilmoqda

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar mamlakat hududiga olib kirilishi cheklangan tovarlar qatoriga kiradi. Ularni respublika hududiga qonunga xilof ravishda olib kirish, noqonuniy foydalanganlik uchun qonunchilikda jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, bunda uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Tahlillar uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda respublika hududiga olib kirish holatlari fuqarolarning qonunchilik talablarini bilmasligi natijasida sodir etilayotganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, uchuvchisiz uchadigan apparatlar ayrim sohalar va tadbirlarda qo‘llanilishi fuqarolar orasida bunday moslamalardan foydalanish mumkin, degan yanglish fikrni uyg‘otmoqda.

Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihasida respublika hududida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan noqonuniy foydalanishni birinchi marta sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik o‘rniga ma’muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Bu kabi huquqbuzarliklarni takror sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik jazo choralarini



yengillashtirish nazarda tutilmoqda.

Kiritilayotgan normalar fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyasiga, mamlakatimizga chet ellik sayyohlar oqimini tobora kengaytirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga, pirovardida esa davlatimizning xalqaro maydondagi imijini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi siyosiy partiyalar fraksiyalari yig‘ilishlarida keng muhokamalardan o‘tkazilgan, Qonunchilik palatasi majlisida deputatlar birinchi o‘qishda ko‘rib chiqqan.

Ayni paytda quyi palataning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi tomonidan mazkur loyiha mutaxassislar, ekspertlar ishtirokida maromiga yetkazilib, Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi muhokamasiga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

### Mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar qo‘llab-quvvatlanadi

Keyingi yillarda zargarlik san’ati an’analarini qayta tiklash, mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlash, shuningdek, aholining sifatli zargarlik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan ko‘plab ishlar qilinmoqda.

➡ 3

## QOZOG'ISTONNING BIRINCHI PREZIDENTI YOZGAN MEMUAR ASARNING O'ZBEKISTON PREZIDENTI UCHUN ATALGAN NUSXASI TOPSHIRILDI

*6-dekabr kuni Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidentining matbuot kotibi Aydos Ukibay tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida o'tgan uchrashuvda mehmon davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevga Qozog'iston Birinchi Prezidentining salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Shuningdek, Aydos Ukibay Nursulton Nazarboyevning "Mening hayotim. Qaramlikdan ozodlikka" nomli memuarlar kitobining O'zbekiston Prezidentiga atalgan va muallif dastxati tushirilgan nusxasini topshirdi.

Tarixiy jarayonlar va shaxsiy munosabatni o'zida mujassamlashtirgan kitobda Nursulton Nazarboyev o'zining hayotiy yo'li, mamlakatning shakllanish va rivojlanish davri to'g'risidagi xotiralari bilan o'rtoqlashadi. Respublikaga rahbarlik qilgan oxirgi o'n yilliklardagi voqealarga baho beradi.

Kitob qahramonlari orasida muallif siyosiy maydonda kesishgan taniqli siyosatchilar ham bor. Qozog'istonning Birinchi Prezidenti davlat va hukumatlar rahbarlari, boshqa mashhur shaxslar bilan munosabatlarini ta'riflaydi.

Nursulton Nazarboyev O'zbekiston yetakchisi, "atoqli siyosiy arbob Shavkat Mirziyoyev"ni alohida qayd etadi. Kitobda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan, mamlakatimiz




iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan islohotlar yuksak baholangan. Qozog'iston bilan har tomonlama aloqalar yanada jadal rivojlana boshlangani, Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq qardosh mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

**O'zA.**

## INSON MANFAATLARI ULUG'LANGAN YURTDA TARAQQIYOT VA FAROVONLIK BO'LADI

1 Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishida ham asosiy masala inson huquq va erkinlarini ta'minlash va kafolatlashdan iborat bo'ldi.

Jumladan, Konstitutsiyaning 1-moddasida "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"dir deb belgilanishi aynan xalq irodasining ifodasidir. Zero, huquqiy davlatda barcha jarayon qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi.

Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

Ijtimoiy davlat esa har bir fuqaroga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bu — mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

Dunyoviy mamlakatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo'lib, davlat diniy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha insonlarga bir xil munosabatda bo'ladi, diniy e'tiqodga qarab cheklovlar o'rnatilishiga yoki imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiyaning o'zida alohida qayd etilganidek, 1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas. Boshqacha aytganda, bu norma — O'zbekistonning hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligini nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning 20-moddasi inson va fuqarolar manfaati yo'lidagi yangilanishga yana bir misol bo'lishi mumkin. Unga asosan, endilikda inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Bu shuni anglatadiki, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat manfaatiga emas, inson foydasiga hal etiladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, yangilangan Konstitutsiyaga xalq manfaatlari yo'lida inson huquqlarining himoyasi va kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan boshqa ko'plab normalar ham qo'shildi.

Masalan, O'zbekistonda o'lim jazosining taqiqlanishi (25-modda), agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi (28-modda), qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi (29-modda), har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga



xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab etish huquqiga ega ekanligi (31-modda), davlatning zimmasiga internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyatining yuklatilishi (33-modda) va hokazolar shular jumlasidandir.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolati sifatida o'zida inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillari majmuini ifodalaydi, jamiyat esa u orqali demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishni eng oliy maqsad deb unga tomon intiladi. Binobarin, inson manfaatlari ustuvor bo'lgan yurtda taraqqiyot va farovonlik bo'ladi.

**Akbar TOSHQULOV,**
**O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri.**

# YANGILANGAN ASOSIY QONUNIMIZDA ADOLAT TAMOYILLARI USTUVOR

*O'zbekistonda olib borilayotgan tarixiy islohotlar hayotda qanday samara berayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Ayni chog'da yangilanish va o'zgarishlar jarayonining amaldagi natijalari dunyo miqyosida ham e'tirof etilayotgani O'zbekistonimizning xalqaro nufuzi va obro'-e'tibori yanada yuksalishiga xizmat qilmoqda. Agar qisqa muddatda mamlakatimiz dunyo uchun ochiq davlatga aylanib,xalqaro munosabatlarimiz sezilarli darajada mustahkamlangan bo'lsa,ichki siyosatda inson huquq va manfaatlarini kafolatlash,shu jumladan, har bir jabhada adolat ustuvorligini ta'minlash doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. Buni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda adolat tamoyillari keng o'rin olgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.*

### Tahlil

Bu haqda so'z yuritishdan oldin Konstitutsiyani yangilashga bo'lgan zarurat haqida qisqacha to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq. Nega deganda, bundan yetti yil muqaddam mamlakatimizda barcha sohani shiddat bilan isloh etish, yangi O'zbekiston va uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilganda, huquqiy asoslarni, xususan, Konstitutsiyani bugungi kun nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Davrning ana shu talabini teran ilg'agan Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu masalaga yanada aniqlik kiritib, "Konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylash" zarurligini ta'kidladi.

Shu tariqa mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarga kirishildi va pirovardida 65 foizga yangilangan Bosh qomusimiz 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquq va manfaatlari himoyasi, shuningdek, sud hokimiyati bilan bog'liq bir qator yangiliklar kiritildiki, bularning barchasi jamiyatda adolat tamoyillari ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda 2008-yildan buyon jazolar tizimidan o'limga hukm qilish chiqarib tashlangan, ammo bu holat Konstitutsiyada o'z ifodasini topmagan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o'lim jazosining taqiqlanishi qat'iy belgilab qo'yilgani O'zbekiston bu o'ta jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligi hamda insonparvarlik g'oyalariga hamisha sodiqligini butun dunyoga namoyon qildi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Gap inson huquqlari daxlsizligini ta'minlash haqida borar ekan, O'zbekiston insonparvar davlat sifatida o'z Konstitutsiyasida xalqaro institutlar — "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" tamoyillariga qat'iy rioya qilganini alohida qayd etish joiz. Aniqroq aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdan mustahkam o'rin olgan "Miranda qoidasi"ga ko'ra, shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari hamda ushlab turish asoslari unga tushunarli tilda bayon qilinadi. Ayni chog'da gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Aytish joizki, "Miranda qoidasi" gumonlanuvchining, eng avvalo, huquqlari batafsil tushuntirilishini nazarda tutadi. Sukut saqlash huquqi mavjudligini tushuntirish uning ko'p tarqalgan shakllaridan biridir. Shu ma'noda, ushbu institutning Bosh qomusimizda o'z ifodasini topganligini katta yutuq sifatida baholash mumkin.

Qolaversa, unda surishtiruv, tergov va sud jarayoni, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli ta'minlashga qaratilgan muhim kafolatlar ham mustahkamlab qo'yilgan. Masalan, aybdorlikka oid barcha shubhalar gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi, agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Shuningdek, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishini cheklashga hamda uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat sud qaroriga asosan yo'l qo'yilishi, har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangani ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muhim yutuqlaridan biridir.

Bundan tashqari, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlov jarayonida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega ekanligi, shaxs sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi ham belgilandiki, bu, albatta, insonparvarlikning yuksak namunasidir.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilishga, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishiga oid normalar kiritilgani ham fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz haqida fikr yuritganda, uning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi" deya bayon qilingani ham muhim o'zgartirishlardan biri bo'ldi, deyish mumkin.

Nega deganda, bugungi kunda dunyoning sanoqli davlatlarida Konstitutsiya moddalari to'g'ridan-to'g'ri amalda qo'llanadi. O'zbekistonda Konstitutsiyamizning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyaviy normalarga asoslangan holda faoliyat olib borish, xususan, sudga murojaat etish imkonini bermoqda.



Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

Bundan ham muhimi shundaki, bugungi kunda sudlar fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishda to'g'ridan-to'g'ri yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz normalariga murojaat etmoqda.

Bu, o'z navbatida, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, "Inson qadri uchun" tamoyilini to'liq ro'yobga chiqarish, fuqarolarda Konstitutsiyamizga ishonch va hurmat ruhini shakllantirishda muhim asos bo'lmoqda.

Bu borada Oliy sud Plenumi tomonidan 2023-yil 23-iyunda "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning "Sud hokimiyati" deb nomlangan XXIII bobida sud hokimiyatining mustaqilligi, faoliyati, odil sudlovning amalga oshirish prinsiplari kabi mezonlari qat'iy kafolatlangan. Yanada aniqroq aytganda, yangi O'zbekiston sharoitida sud hokimiyatining faoliyatini to'liq kafolatlaydigan zamonaviy va demokratik normalar to'liq o'z ifodasini topgan.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz sudlarni adolat qo'rg'oniga aylantirishda to'liq huquqiy asos bo'ladi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning e'tiborli jihatlaridan yana biri xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari bilan bog'liq.

Sir emas, keyingi yillarda yurtimizda xususiy mulk daxlsizligi, mulkdorlar huquq va qonuniy manfaatlarining himoyasi bo'yicha bir qator huquqiy asoslar yaratildi. Shunday ekan, ushbu masalani Konstitutsiya darajasida belgilash orqali qanday maqsad ko'zda tutilgan?

Gap shundaki, xususiy mulkka qaratilayotgan ulkan e'tibor bois ushbu yo'nalish sezilarli darajada rivojlandi. Qolaversa, soha rivojiga xalal berayotgan muayyan muammolar ham ko'zga tashlana boshladi. Shunday vaziyatda sohaning qonunchilik asosini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, Konstitutsiyada uni ifodalash talab etildi. Natijada bu boradagi takliflar asosida bir qator normalar kiritildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi qat'iy belgilanib, davlatning qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti ta'minlanishiga doir qoida mustahkamlandi. Bu bilan mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani jalb etishni rag'batlantirish, investorlar ishonchini mustahkamlash, tadbirkorlar huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatli tarzda himoyalash maqsad qilingan bo'lib, buning hayotiy natijalarini bugun barchamiz ko'rmoqdamiz.

Shuningdek, xususiy mulk daxlsizligini kuchaytirishda sudning o'rnini belgilashga qaratilgan yangiliklar ham e'tiborga molik. Ya'ni mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari, sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilandi. Bunga qadar sudning qaroriga asoslanish haqidagi norma mavjud emas edi. Bu ham, o'z navbatida, xususiy mulk daxlsizligi kafolatlarini Konstitutsiya darajasida to'la ta'minlash bilan bir qatorda jamiyatdagi o'tkir muammolardan biriga aylangan "imoratlarni buzish" bilan bog'liq muammolarga adolatli yechib topish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Shu munosabat bilan uy-joy mulkdorlariga sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda kompensatsiya olish kafolati belgilandi. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo'l qo'yilmasligini anglatadi. Ushbu kafolat uy-joyga nisbatan mulk huquqi mulkdor erk-xohishidan qat'i nazar, majburiy tarzda bekor bo'layotganda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Sud tomonidan mulk huquqi bekor bo'lishiga olib keluvchi holatlar amaldagi qonun hujjatlari asosida obyektiv tarzda ko'rib chiqiladi. Albatta, mazkur tartib mulkdor har qanday holatda asossiz ravishda mulk huquqidan mahrum etilmasligiga xizmat qiladi.

Ikkinchi kafolat esa mulkdorning iqtisodiy manfaatlari himoyasiga yo'naltirilgan. Mazkur norma qonunda belgilangan hollarda va tartibda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorni shu uy-joy va yetkazilgan zarar uchun teng qiymatda kompensatsiya olishini kafolatlaydi.

Kezi kelganda aytish kerakki, fuqarolarning yerga bo'lgan xususiy mulk kafolati Konstitutsiyamizda ilk marotaba mustahkamlandi. Mazkur normani yangi tahrirdagi Bosh qomusimizdagi inqilobiy yangiliklardan biri o'laroq ko'rsatish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, yangilangan Konstitutsiyamizdan o'rin olgan har bir normada adolat prinsiplari ustuvorlik qiladi. Endigi vazifa esa ana shu normalar hayotimizdan mustahkam o'rin egallashini ta'minlashdan iborat. Bu boshqa idoralar barobarida sud organlaridan ham katta mas'uliyat talab etadi.

E'tiborli jihati shundaki, ushbu masala yangilangan Konstitutsiyadan o'rin egallagan. Bu boradagi yangiliklar, asosan, sud hokimiyati va sudyalar mustaqilligi kafolatlariga, sudlar faoliyati va sud tizimiga, sudyalar korpusini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, uning negizida "Inson qadri uchun" g'oyasi mujassamdir.

Sudyalarning mustaqilligi kafolatlari sifatida sudyalar faqatgina qonunga emas, balki, eng avvalo, Konstitutsiyaga bo'ysunishi qat'iy belgilandi. Shu o'rinda sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmasligi kabi norma aks ettirilishi orqali sudning mustaqilligi yanada kuchaytirildi.

Shularga mos ravishda davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlashga mas'ul ekani belgilanishi uning daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlashi barobarida fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

Asosiy Qonunimizda Sudyalar oliy kengashi bilan bog'liq qo'shimchalar ham ko'zda tutilgan. Xususan, Sudyalar oliy kengashining huquqiy maqomiga aniqlik kiritilib, u sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi sifatida sud hokimiyati mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlash bilan birga sudyalar korpusini shakllantirishga ham mas'ul etib belgilandi.

Adolat prinsipi haqida so'z ketarkan, Bosh qomusimizga kiritilgan yana bir muhim yangilikni aytib o'tmasak bo'lmaydi. Fuqarolardan kelib tushgan ko'plab takliflar asosida Konstitutsiyada "Advokatura" nomi bilan ataluvchi yangi bob shakllantirildi.

Ma'lumki, sudlarda taraflar tengligi va tortishuv prinsipi to'liq ta'minlanishi odil sudlovni adolatli hamda qonuniy amalga oshirishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Shu ma'noda, advokatura institutiga alohida bob ajratilishi katta voqelik, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, advokatura maqomi Konstitutsiya darajasiga olib chiqilishi, uning maqomi va ahamiyatini yanada oshiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablarini amalga muvaffaqiyatli joriy etish butun jamiyatimiz, xususan, sudya va sud xodimlaridan chuqur bilim, keng dunyoqarashga ega bo'lish, fidoyilik ko'rsatib, zimmadagi mas'uliyatli vazifalarni to'liq bajarish, eng muhimi, halol va vijdonan faoliyat yuritishni talab qiladi. Davlat rahbarining bugungi sudyaning ongida adolat, tilida haqiqat, dilida poklik ustuvor bo'lishi shart, degan qat'iy talabiga har jihatdan munosib bo'lishi kerak.

Umuman, yangilangan Konstitutsiyamizdan o'rin olgan har bir modda jamiyat hayotida adolat tamoyillari ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu butun xalqimizning dilidagi maqsad-muddaodir.

**Baxtiyor ISLOMOV,**
**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi.**

# IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHISHDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK

1 Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish borasida O'zbekistonda olib borilayotgan sa'y-harakatlar, xususan, parlamentning faol ishtirokida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, atrof-muhitni muhofaza etish bo'yicha ko'plab xalqaro hujjatlar, jumladan, Iqlim bo'yicha Parij kelishuvi ratifikatsiya qilingani aytib o'tildi.

Oliy Majlis Senati Raisi ekologik muammolarning dolzarbligi hamjihatlik va parlamentlararo hamkorlikni yanada kuchaytirishni talab qilayotganini ta'kidlab, qator takliflarni ilgari surdi.

Xususan, Parlamentlararo Ittifoq doirasida iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan rezolyutsiyalar, bayonotlar va boshqa hujjatlar ijrosini monitoring hamda tahlil etishning doimiy mexanizmini yaratish masalasini o'rganish zarurligi aytib o'tildi.

Shuningdek, Parlamentlararo Ittifoq tomonidan muvofiqlashtirish doirasida bolalar va xotin-qizlarni iqlim o'zgarishi oqibatlaridan himoyalash bo'yicha xalqaro hujjatni qabul qilish masalasini ko'rib chiqish lozimligi urg'ulandi.

Yig'ilishda qonunchilik faoliyatini global iqlim maqsadlariga moslashtirish, hamkorlikni mustahkamlash va qonun chiqaruvchi organlarning ekologik muammolarni hal etishdagi rolini kuchaytirish, bundan tashqari, ushbu muhim global jarayonda parlament ishtirokining ahamiyatini oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tadbir yakunida iqlim bilan bog'liq qonunchilikni ishlab chiqish, iqlim bo'yicha majburiyatlarni amalga oshirishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash borasida davomli, istiqbolli va dalillarga asoslangan monitoring va hisobot berish mexanizmlarini yaratish, "yashil" iqtisodiyotni ilgari surish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni moliyalashtirish yuzasidan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash masalalarini qamrab olgan parlamentlarning yakuniy hujjati qabul qilindi.

**Muloqot**

# ALOQALARIMIZ AMALIY MAZMUN BILAN BOYITILADI

*BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi doirasidagi parlament sessiyasida qatnashish uchun Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib turgan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi BAA Federal milliy kengashi Raisi Saqr G'obash bilan muzokara o'tkazdi.*

Uchrashuvda ikki davlat hamkorligining turli yo'nalishlari, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, iqlim o'zgarishi oqibatini bartaraf etish bo'yicha va ayniqsa, parlamentlararo muloqotni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda O'zbekiston va BAA o'rtasida ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki davlat parlamentlari o'rtasidagi aloqalar ham tobora izchillik kasb etib borayotir.

Oxirgi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash 4 barobar o'sib, 2023-yil yanvar — sentabr oylarida o'zaro savdo 475,7 mln. dollarni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 40 foizga oshgan. Ayni chog'da yurtimizda faoliyat yuritayotgan BAA sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar so'nggi besh yilda 2,5 barobar ko'paygan. "Yashil" energetika, qishloq xo'jaligi, transport, logistika, turizm infratuzilmasi kabi yo'nalishlarni qamrab olgan investitsiya loyihalari portfeli 4 mlrd. dollardan ziyodni tashkil qilayotgani ham e'tiborga molik.

Tomonlar mamlakatlarimizda ushbu ko'rsatkichlarni bir necha barobarga oshirish imkoniyati mavjudligi va bu borada parlamentlarimiz faollik ko'rsatishi lozimligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, parlamentlararo hamkorlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi barcha darajadagi aloqalarni rivojlantirishda muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston va BAA parlamentlari o'rtasidagi aloqalar izchilligini ta'minlash, xususan, qonun ijodkorligi va parlament nazorati yo'nalishlarida hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan fikr almashildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlar asosida qabul qilingan "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalar ijrosi ustidan tizimli parlament nazoratini o'rnatish, xalq diplomatiyasining muhim jihati hisoblangan "do'stlik guruhlari" faoliyatini jonlantirish lozimligi qayd etildi.

BMT, Parlamentlararo Ittifoq, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida sheriklikni izchil davom ettirishga kelishib olindi.

Oliy Majlis Senati Raisi BAA Federal milliy kengashi Raisini O'zbekistonga taklif etdi.

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi delegatsiyamiz Dubay shahridagi "Dubai Expo" markazida tashkil etilgan "O'zbekiston" pavilyoni bilan tanishdi.*

Aytish joizki, O'zbekiston Markaziy Osiyo pavilyoni ostida qatnashmoqda. Bu "Bir mintaqa — bir ovoz" pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan birgalikdagi sa'y-harakat hisoblanadi.

BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida O'zbekiston ikkita, ya'ni ko'k va yashil pavilyonlarda ishtirok etmoqda.

Ko'k zonadagi pavilyonda O'zbekistonning ekologik salohiyati, xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Orol dengizi holati va uni ko'kalamzorlashtirish borasidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Yashil zonadagi pavilyonda Prezidentimiz tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, biologik xilmaxillik, umuman, ekologiya sohasida qilinayotgan ishlar haqida ma'lumotlar, videoroliklar va yurtimizning turizm salohiyati namoyish etilmoqda.

**"Xalq so'zi".**

# DOLZARB QONUN LOYIHALARI KO'RIB CHIQILMOQDA

1 Shu bilan bir qatorda, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, xomashyo xaridi, ishlab chiqarilgan mahsulot savdosining katta qismi yashirin tarzda amalga oshirilayotgani ham sir emas.

Shu yil 14-noyabr kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi mazkur yo'nalishdagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu loyiha zargarlik sohasini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish, qimmatbaho metallar va toshlardan zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, hozirgi kunda mahalliy zargarlik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ichki iste'mol bozorini qondirish bilan birgalikda xorijiy bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Buning uchun zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarishda qimmatbaho va yarimqimmatbaho toshlarga bo'lgan talab ortib borayotir.

Biroq qimmatbaho toshlar zaxiralari mamlakatimizda mavjud emasligi hamda ularning asosiy qismi chet eldan import qilinishi mahsulot tannarxining oshishiga sabab bo'lmoqda. Qonun loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga qo'shimcha kiritish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qimmatbaho va yarimqimmatbaho toshlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish nazarda tutilgan.

Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xomashyo bilan ta'minlashga, zargarlik buyumlari tannarxining pasayishiga hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'l ochadi.

Ayni paytda Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi tomonidan ushbu qonun loyihasi quyi palata majlisida deputatlar tomonidan birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqilishi uchun tayyorlanmoqda.

### Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar vakolatlari kengaymoqda

Ichki ishlar organlari tizimida yo'lga qo'yilgan voyaga yetmaganlar masalalariga mas'ul inspektor-psixologlar (bevosita o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritadi) hamda xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektorlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi Qonunchilik palatasida ko'rilmoqda.

Mazkur hujjat loyihasi voyaga yetmaganlar masalalariga mas'ul inspektor-psixologlarga ta'lim muassasalari hududi va uning atrofida o'quvchilar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish va maktablarda jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan, shuningdek, xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarga himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy bayonnoma tuzish hamda belgilangan tartibda jazo chorasini qo'llash vakolatlari berilishini nazarda tutadi.

Qonun loyihasi siyosiy partiyalar fraksiyalarining hamda Qonunchilik palatasi Kengashining 27-noyabr kuni o'tkazilgan majlislarida atroflicha muhokama qilindi.

Bu bo'yicha Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan 5-dekabr kuni soha vakillari, jumladan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida faoliyat olib boruvchi voyaga yetmaganlar masalalariga mas'ul inspektor-psixologlar hamda xotin-qizlar bilan ishlash masalalariga daxldor inspektorlar ishtirokida ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi. Unda soha mutaxassislari va ekspertlarning fikr-mulohazalari, takliflari olindi.

Yaqinda loyiha Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisiga konseptual jihatdan ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

### Pensiya miqdori eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lmaydi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 46-moddasida fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqiga ega ekanligi hamda ijtimoiy yordam miqdorining rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi mustahkamlandi.

Shundan kelib chiqib, Hukumat tomonidan Qonunchilik palatasiga "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz amalga oshirish va aholiga davlat xizmatlari ko'rsatilishini yaxshilashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi kiritilgan edi. Loyiha shu yil 28-noyabr kuni quyi palata majlisida birinchi o'qishda ko'rib chiqilib, konseptual jihatdan qabul qilindi.






Ushbu loyiha bilan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi va "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarga pensiya tayinlash jarayonida inson omilini kamaytirish hamda keksa yoshdagi shaxslarga davlat xizmati ko'rsatilishi sifatini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jumladan, loyihada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq pensiya miqdori eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lmasligi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali pensiya tayinlash uchun murojaat qilishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Bundan tashqari, Pensiya jamg'armasi tomonidan Xalq bankiga axborot tizimi orqali yuboriladigan fuqaroning pensionerligi haqidagi ma'lumotlar asosida unga jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi to'lovlarini olish huquqini yaratish ko'zda tutilmoqda.

Mazkur loyihaning qabul qilinishi aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Sohaga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali fuqarolarga pensiya tayinlash uchun murojaat qilish hamda pensiya hisob varaqlarida yig'ilgan mablag'larini olishlari bo'yicha qulaylik yaratiladi.

Ushbu loyiha siyosiy partiyalar fraksiyalari majlislarida ham qizg'in muhokamalardan o'tkazildi. Ularda deputatlar tomonidan asosli takliflar ilgari surildi. Albatta, e'tirozli fikrlar ham bildirildi.

Hozirda Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan xalq vakillari hamda saylovchilarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda loyihani yanada takomillashtirish ustida ish olib borilayotir. Yaqin kunlarda u Qonunchilik palatasi majlisida ikkinchi o'qishda ko'rib chiqiladi.

### Sog'lom raqobat bor joyda o'sish va rivojlanish bo'ladi

Mamlakat iqtisodiyotidagi raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim tizimli muammolar va hal etilishi lozim bo'lgan masalalar hanuzgacha mavjudligi samarali raqobat muhitini yaratish imkonini bermayotir.

Hukumat tomonidan shu yil 28-noyabr kuni Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihasi bilan amaldagi qonunchilikka davlat yordamini berishni nazarda tutuvchi loyihalar Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan majburiy tartibda kelishib olinishini nazarda tutuvchi o'zgartishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, asosiy faoliyati tabiiy monopoliya sharoitida tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy monopoliyalar sohasida faoliyat olib borganda ular tabiiy monopoliya subyektlari hisoblanmasligi belgilanmoqda. Ya'ni ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlar (tariflar) asossiz oshirilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi, tadbirkorlar va iste'molchilar huquqlari hamda manfaatlarining kamsitilishiga nisbatan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari qo'llanilishi, iqtisodiy ta'siri past holatlar bo'yicha birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik subyektiga moliyaviy sanksiya qo'llanilmasligi, ularga nisbatan profilaktik tushuntirish tadbirlari amalga oshirilishini nazarda tutuvchi normalar aks ettirilmoqda.

Qonun loyihasi yuzasidan mas'ul — Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar vakillari, ekspertlardan iborat tarkibda ishchi guruh shakllantirildi.

Loyiha tez kunlarda Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisiga konseptual jihatdan ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

### Tadbirkorlar huquqlari himoyasi kuchaytirilmoqda

Hozirda Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qonun loyihasi Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisida deputatlar muhokamasiga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

Qonun loyihasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanishiga doir normani hayotga tatbiq etish nazarda tutilmoqda.

Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining O'zbekiston hududida erkin faoliyat yuritishi va o'ziga tegishli bo'lgan tovarlar va xizmatlardan o'z xohishiga ko'ra foydalanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Milliy qonunchilik Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirilmoqda

Yaqinda Hukumat tomonidan Qonunchilik palatasiga "O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi kiritildi.

Ushbu hujjatda intellektual mulk obyektlarini ro'yxatga olish jarayonlarida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda sohada davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish nazarda tutilayotir. Shuningdek, milliy intellektual mulk tizimi hamda reklama qonunchiligi Jahon savdo tashkiloti bitimlarida belgilangan talablarga uyg'unlashtirilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq harakatlarni bajarishda O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslariga bir xil imkoniyat yaratilayotganligi kelgusida mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yaqin kunlarda mazkur loyiha Qonunchilik palatasi majlisida xalq vakillari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ayni paytda qonun loyihasi quyi palataning Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar vakillari bilan birgalikda takomiliga yetkazilmoqda.

Qonunchilikka kiritilishi taklif etilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar, avvalo, xalq va davlat manfaatlarini, yurtimiz iqtisodiyotining kelgusidagi o'sish sur'atlarini inobatga olgan holda har tomonlama muhokama qilinmoqda.

Loyiha Qonunchilik palatasi majlisi muhokamasiga kiritilgunga qadar siyosiy partiyalar fraksiyalari majlislarida ham atroflicha muhokamalardan o'tkaziladi.

**"Xalq so'zi".**

# KONSTITUTSIYA YARATILISHI TARIXIGA DOIR KENG FORMATDAGI ILK KO'RGAZMA

1



— Mamlakatimiz Konstitutsiyasi tarixiga doir arxiv hujjatlariga asoslangan bunday yirik ko'rgazma birinchi marta uyushtirildi, — deydi "O'zarxiv" agentligi direktorining maslahatchisi Shuhrat Tursunboyev. — Joriy yilda Qonunchilik palatasining ko'magi va qo'llab-quvvatlovi bilan qo'shimcha qimmatli arxiv hujjatlariga ega bo'ldik. Natijada ushbu ko'rgazmada Konstitutsiyamizning ikki tarixiy davriga doir juda muhim eksponat-hujjatlarni namoyish etish imkoni paydo bo'ldi. Ular orasida, hatto, konstitutsiyaviy islohotlar davrida oddiy fuqarolardan kelgan takliflar, fikr-mulohazalar aks etgan maktublar ham o'rin olgani diqqatga sazovordir. O'ylaymanki, ushbu ko'rgazma aholiga, ayniqsa, yoshlarga mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar haqida, shuningdek, Bosh qomusimizning mohiyati va ahamiyatini teran anglab yetishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.



— Har bir yangilik, o'zgarish va boshqa jarayonlar vaqt o'tib o'tmishga aylanar ekan, mamlakatning bosh huquqiy hujjati hisoblangan Konstitutsiyaning ham o'z tarixi bo'lishi tabiiy va shart, — deydi ko'rgazma qatnashchisi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi direktori Gulabza Qarshiyeva. — Shu ma'noda, ko'rgazmada xalqimizning o'zi ijod etgan, uning yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon qiluvchi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yaratilishi tarixi gavdalantirilgani kishiga o'zgacha kayfiyat va ruh beradi. Bunday ko'rgazmalarni keyingi yillarda ham o'tkazish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman. Bu orqali Prezidentimiz boshchiligida mamlakatimizda barcha sohada izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning mustahkam asosini yaratgan Asosiy Qonunimiz mohiyati va ahamiyatini xalqimizga yetkazish, tarixi bilan jamoatchilikni yanada kengroq xabardor qilish imkoni bo'ladi.



— Yangi tahrirdagi Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha sohasini qamrab olgan bo'lib, unda belgilangan yangi normalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini, orzu-umidlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga, shuningdek, O'zbekistonda kechayotgan keng ko'lamli islohotlarning bosh maqsadi hisoblangan inson, xalq, millat va jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Umida Rahmonova. — Shu nuqtayi nazardan, "Konstitutsiya haftaligi" munosabati bilan Qonunchilik palatasida o'tkazilayotgan "Ochiq eshiklar kuni" doirasida tashkil etilgan ko'rgazma barchamiz uchun birdek qiziqarli, qadrli va ahamiyatlidir. Buni ko'rgazmada qatnashgan xorijlik mehmonlar ham alohida e'tirof qilgani bejiz emas.

Darhaqiqat, ko'rgazmada Konstitutsiyamizning yaratilishi va hayotimizga tatbiq etilishi tarixi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy qabul qilinish jarayonlari haqida tushuncha beruvchi noyob eksponatlar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha Konstitutsiyaviy komissiya faoliyatini aks ettiruvchi muhim hujjatlar, video va fotomateriallar taqdim qilingani barchaning diqqatini tortadi. Ushbu hujjatlar vositasida xalqimiz bosib o'tgan mashaqqatli va sharafli taraqqiyot yo'li hamda fuqarolarning faol ishtiroki haqida ko'plab ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

"Konstitutsiya haftaligi" doirasida o'tgan ushbu ko'rgazma ishtirokchilari uchun Qonunchilik palatasi bo'ylab ekskursiya tashkil etildi, majlislar zali va muzey, parlament kutubxonasi hamda deputatlar faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi.

Aytish joizki, parlament quyi palatasida "Ochiq eshiklar kuni" va ko'rgazma o'tkazilayotganligi jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Buni birgina 5-dekabr kuni Qonunchilik palatasiga bir qator ta'lim muassasalari, xususan, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari, shuningdek, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi va Toshkent shahridagi 67-maktab o'quvchilari ko'rgazmani tomosha qilish bilan bir qatorda parlament faoliyati bilan yaqindan tanishish hamda o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javob olish imkoniga ega bo'lgani misolida ham ko'rish mumkin.

Bir hafta davom etgan ushbu ko'rgazma keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lib, Qonunchilik palatasida o'tkazilayotgan "Ochiq eshiklar kuni" doirasida olimlar, mutaxassislar, ziyolilar, talaba-yoshlar, o'quvchilar, umuman, qiziquvchilarga Konstitutsiyaning yaratilish tarixini yetkazishda o'ziga xos platforma vazifasini o'tadi.

**"Xalq so'zi".**

**Uchrashuv**

# ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA MILLIY AMALIYOT

*BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 17-dekabrdagi rezolyutsiyasi bilan 25-noyabr — Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni sifatida belgilangan.*

Shu munosabat bilan har yili dunyo miqyosida, shu jumladan, mamlakatimizda 25-noyabrdan 10-dekabrgacha "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" faol harakatlar doirasida turli tadbirlar o'tkazilishi an'anaga aylangan.

Bu yilgi tadbirlar "Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun investitsiyalar!" shiori ostida mamlakatimiz bo'ylab uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda. Ularda Oliy Majlis Senati a'zolari ham faol ishtirok etmoqda.

Xususan, kecha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Oliy Majlis Senati hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida "Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni bartaraf etish" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir uyushtirildi.

Unda dastlab "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o'tildi.

O'z navbatida, oilaviy-maishiy zo'ravonlikning oldini olish hamda uning salbiy oqibatlari, ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil etildi.

**"Xalq so'zi".**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Devoni jamoasi Devonning sobiq xodimi, mehnat faxriysi

**Aleftina Abdulbariyevna AKRAMUTDINOVAning**

vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

## Biz va jahon




# London markazida o‘zbek milliy taomlari restorani ochildi

*Buyuk Britaniya poytaxti London shahrining markaziy ko‘chalaridan birida o‘zbek milliy taomlari tamaddixonasi ochildi.*

Restoran o‘zbek diasporasining faol vakillari tomonidan O‘zbekiston elchixonasi ko‘magida tashkil etildi.

O‘zbek milliy taomlari restorani Londonning eng mashhur va gavjum hamda nufuzli ko‘chalaridan biri — shahar aholisi va uning mehmonlari uchun diqqatga sazovor joy bo‘lgan Pikadilli maydonida joylashgan.

Yangi tamaddixona Buyuk Britaniya poytaxtidagi O‘zbekistonning o‘ziga xos ramziga aylanishi kutilmoqda. Bu yerda xo‘randalar, shuningdek, eng yaxshi o‘zbek dizaynerlari tomonidan yaratilgan milliy uslublar bilan tanishishi mumkin. Unda ko‘plab xalq amaliy san’ati namunalari, rasmlar, milliy musiqa asboblari namoyish etilmoqda, ular sharqona taom muhitini ham o‘z ichiga olgan.

Restoran xodimlari uchun maxsus tikilgan kiyimlarda o‘zbek milliy liboslari elementlari aks etgan. Taomnomada esa palov, sho‘rva, manti, do‘lma, qo‘zichoq, tovuq yoki aralash go‘shtdan tayyorlangan o‘nga yaqin kaboblar o‘rin olgan.

— Gastronomiyasiz mamlakat yo‘q. O‘zbek pazandachiligi taomlarga boyligi va xilmaxilligi bilan ajralib turadi. An’anaga ko‘ra, shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lgan palov maxsus cho‘yan qozonda baland va past olovda bir necha soat davomida mehr bilan tayyorlanadigan milliy taomdir, — deydi restoran asoschisi Muzaffar Sodiqov. — Palov odatda mol yoki qo‘y go‘shti, guruch, no‘xat va sabzidan tayyorlanadi. Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro yoki Xorazmda palovga turli sabzavotlar va ziravorlar ham qo‘shiladi. Bayram va kundalik palov retseptlari ham mavjud.

Ma’lumot o‘rnida aytish joiz, Londonga har yili dunyoning turli burchaklaridan 40 milliondan ziyod sayyohlar tashrif buyuradi. Sayyohlar mamlakat iqtisodiyotiga qariyb 36 milliard dollar foyda keltiradi.

**“Dunyo” AA.**
**London**

# SIYOB ARIG‘I BO‘YIDA KO‘RKAM SAYYOHLIK MASKANI BARPO ETILMOQDA



*Samarqand shahridan oqib o‘tuvchi Obirahmat va Siyob ariqlarining atrofi tozalanib, hududda mahalliy aholi hamda sayyohlarga maroqli hordiq chiqarishlari uchun sharoit yaratilmoqda. Bu ishlar viloyat hokimi taklifiga ko‘ra, bir guruh tadbirkorlarning tashabbusi bilan amalga oshirilyapti.*

## Obodlik

Mana, ikki oydan buyon tadbirkorlar o‘z mablag‘lari hisobidan Xalqaro turizm markazidan boshlanuvchi 18 kilometrlik Siyob arig‘ining ikki tomonida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib bormoqda. Jumladan, Obirahmat, Xo‘ja Doniyor mahallalari aholisi, shuningdek, “SFX” qurilish korxonasining 100 ga yaqin ishchilari Xo‘ja Doniyor majmuasidan akademik Vohid Abdullayev ko‘chasigacha bo‘lgan 2 kilometrlik hududni tozalab, ariqning ikki tomonidan 4 metrlik velo va piyodalar yo‘laklari qurish ishlarini yakunlashdi.

Majmua atrofidagi 400 metrlik devor-to‘siq olib tashlandi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi asosida butasimon va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazila boshlandi.

— Tadbirkorlarning tashabbus bilan chiqishi barchaga, jumladan, Xo‘ja Doniyor mahallasi ahliga ham ma’qul keldi, — deydi Xo‘ja Doniyor majmuasi direktori Zafar Mahmudov. — To‘siqlar borligi tufayli ko‘pchilik sayyohlar maqbarani topolmay, adashib o‘tib ketardi. Devor olib tashlangach, mahalla ahli ham o‘z xonadonlarining tashqi ko‘rinishiga e’tibor bermoqda. Bir nechta uy-mehmonxonalar ochilyapti.

Hashar yo‘li bilan obodonlashtirilayotgan hududdan 300 tonna atrofida maishiy chiqindi tashib ketildi. Ayni vaqtda quruvchilar ariq bo‘ylariga chim yotqizib, daraxt ko‘chatlari o‘tqazmoqda.

— Ikki kilometr masofaga sug‘orish tarmoqlari tortilib, 90 ta tungi chiroq, 50 ta o‘rindiq va temir panjaralar o‘rnatildi, — deydi “SFX” MChJ ish boshqaruvchisi Sherzod Aliyev. — Yo‘laklarda 1,5 ming kub temir-beton ishlari bajarildi. Qurilish ishlariga xalaqit bermasligi uchun yer ostidan o‘tgan 700 metr masofadagi tabiiy gaz tarmoqlari yer ustiga olindi. Shuningdek, ikki qirg‘oqni bir-biri bilan bog‘lab turadigan 3 ta ko‘prik quriladi.

E’tiborlisi, obodonlashtirish ishlari jarayonida Obirahmat mahallasidagi birorta xonadon buzilmadi. Faqat noqulay joylashgan qo‘shimcha bino va devorlar balandroq ko‘tarilib, atrofi obod qilindi.

— Archa, majnuntol kabi daraxt ko‘chatlari o‘tqazib, chim yotqizdik, — deydi korxona ishchisi Hasan Saymerov. — Ariqni tozalash jarayonida yopilib ketgan buloq ko‘zlari ham qayta ochildi shekilli, endilikda ilgarigidek oqova emas, balki tiniq suv oqa boshladi.

Bu yerda obodonlashtiriladigan hudud Samarqand tumanining Qo‘shtamg‘ali mahallasidan boshlanib, Qaynama mahallasigacha bo‘lgan masofani o‘z ichiga oladi. Kelgusida loyihalarga ko‘ra, kollektorning ikki qirg‘og‘ida yengil konstruksiyalar asosida dam olish maskanlari, bog‘lar barpo etiladi, milliy taomlar oshxonasi va hunarmandchilik ustaxonalari joylashtiriladi. Kollektor yoqalab 4 ta asosiy ko‘chada piyodalar yo‘lagi qilinadi. Shundan keyin aholining katta ko‘chani kesib o‘tmasligi uchun 4 ta tunnel ham quriladi.

Mana shunday xayrli ishlar natijasida Samarqand shahridan oqib o‘tuvchi, bir paytlar chiqindi bosib yotadigan kanal va kollektorlar tozalanib, ulardan zilol suv oqa boshladi. Atrofi obod maskanga aylanyapti. Ammo afsuski, keyingi paytlarda aholi tomonidan kanallarga yana chiqindi tashlash va kanalizatsiya quvurlarini yo‘naltirib qo‘yish holatlari kuzatilyapti. Unutmang, har birimizning suvga munosabatimiz o‘zgarmas ekan, qilinayotgan mehnat samarasiz bo‘lib qolaveradi.

**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# Shifoni endi olisdan izlashga hojat yo‘q

*Tibbiyotdagi islohotlar samarasi uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, pirovardida esa uzoq yillar dardiga olisdan davo izlagan bemorlar endilikda o‘zlari istiqomat qiladigan hududda shifo topishlari imkoniyatini tuhfa etmoqda.*

## Tibbiyot

Navoiy viloyatining Nurota tumanida shifokorlar Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining malakali mutaxassislari ishtirokida o‘tkazgan murakkab jarrohlik operatsiyasini ham shular sirasiga kiritish mumkin. Unda ikki nafar bemorning son va yelka suyaklarini bloklovchi yuqori texnologik amaliyot bajarildi.

— Ushbu amaliyotni o‘tkazishni taqozo etgan omil “qo‘shma shikastlanish” deb atalib, avtofalokat va ishlab chiqarishda olingan jarohatlanish natijasida yuzaga keladi, — deydi travmatolog Laziz Omonov. — Bu shikastlanishda bemorlarning ahvoli o‘ta og‘irlashishi, uzun naysimon suyaklar, chanoq suyaklari yoki umurtqa pog‘onasining murakkab sinishlari kuzatilib, bu murakkab operatsiya yuqori texnologiyani talab etadi. Keyingi uch-to‘rt yilda hududlardagi tibbiyot muassasalarining zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlanishi natijasida Navoiy viloyatining chekka hududlari — Zarafshon, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarida ham qo‘shma shikastlanish bo‘limlari ochilgan va bugun ular qatoriga Nurota tumani ham qo‘shildi.

Mazkur turdagi jarrohlik amaliyoti kaminvazivligi, ya’ni amaliyot o‘tkazilgan bemorda asoratlarning kam uchrashi, nogironlikdan asrash kabi samaradorlik, bu esa, o‘z navbatida, insonning faol hayotga erta qaytishiga sabab bo‘ladi.

— Bir hafta oldin o‘g‘lim mudhish avtohalokatga uchrab, endi uni qayerga olib borsak, degan tashvishda edik, — deydi Husniddin Begashov. — “Dard ariyman desa, tabib o‘z oyog‘i bilan keladi” deganlaridek, farzandimizning mushkuli oson bo‘ldi.

Xullas, endi nurotaliklar ushbu turdagi amaliyotlar uchun davo istab, vaqt va mablag‘ yo‘qotib markazga borishlari shart emas. Ushbu yuqori texnologik amaliyot Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy viloyati filiali mutaxassislari bilan “Ustoz — shogird” an’anasini saqlab qolgan holda Nurota tumani tibbiyot birlashmasida doimiy o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan bemorlarga kelsak, ayni paytda ular shifokorlar nazoratida bo‘lib, o‘zlarini yaxshi his qilmoqda.

**Temur ESHBOYEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

## Sabzavotchilik

# FERMER BROKKOLI EKSPORT QILMOQDA

*Qamashi tumanida faoliyat yuritayotgan “Nurmanova Xurshida” sabzavotchilik fermer xo‘jaligi tomonidan bir necha yildan buyon brokkoli yetishtirilib, undan yaxshi daromad olib kelinayotir.*

— Brokkoli gulkaramning bir turi bo‘lib, servitamin va parhezbop sabzavotlardan hisoblanadi, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Sherzod Mahmatmurodov. — Manbalarga ko‘ra, brokkolini ilk bor italiyaliklar iste’mol qila boshlashgan. To‘g‘ri, ayni vaqtda brokkoli iste’moli yurtimizda unchalik ommalashmagan, lekin jahon bozorida juda xaridorgir.

O‘tgan yili 2 gektar maydonda takroriy ekin sifatida brokkoli yetishtirgandik. Umumiy hisobda 33 tonna hosil olib, mahsulotni tashqi bozorga chiqardik. Joriy yilda esa 10 gektar yerga brokkoli ekdik. Har gektaridan 20 tonnadan hosil oldik. Bundan tashqari, to‘qsonbosti usulida 20 sotix joyga toshkaram, yana shuncha maydonga piyoz, sarimsoqpiyoz ekdik.

Bu yil fermer xo‘jaligida 100 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi. Kelgusi yildan boshlab mazkur miqdorni bir necha barobar oshirish ustida ish olib borilmoqda.

**Jahongir BOYMURODOV**
**(“Xalq so‘zi”).**





REKLAMA

## Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank” aksiyadorlari diqqatiga!

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida
**XABARNOMA**
(masofadan)

Sizni **2023-yil 28-dekabr kuni soat 10:00** da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati **http://evote.uz** orqali bo‘lib o‘tadigan “Aloqabank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga taklif etamiz.

**Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:**

**1.** “Aloqabank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;
**2.** “Shanghai Construction Group Co., LTD” (XXR) va “Aloqabank” ATB o‘rtasida 2019-yil 28-iyunda tuzilgan ALOQA/SCG-001-sonli qurilish pudrat shartnomasiga qo‘shimcha kelishuv tuzish to‘g‘risida;
**3.** “Tashkent City” XIMda sotilgan 6-lot hududida tanlangan yer maydonini beg‘araz ajratish hamda “Tashkent City” direksiyasi tasarrufiga o‘tkazib berish to‘g‘risida.

“Aloqabank” ATB Kuzatuv kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi yig‘ilishi qaroriga asosan aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida **xabardor qilish** uchun reyestrni shakllantirish sanasi: **2023-yil 6-dekabr.** Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida **ishtirok etish** huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: **2023-yil 22-dekabr.** Yig‘ilish qatnashchilarini ro‘yxatga olish **internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz) foydalangan holda 2023-yil 28-dekabr** soat **10:00 dan boshlanib 11:00 da to‘xtatiladi.**

*Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga oid hujjatlar hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tayyorlangan ma’lumotlar bilan bankning* ***www. aloqabank.uz.*** *korporativ veb-sayti,* ***http://evote.uz*** *elektron sahifasi orqali tanishishingiz yoki* ***info@aloqabank.uz*** *elektron manzili bo‘yicha so‘rov yuborishingiz mumkin.*
*Ma’lumot uchun telefon: 71-232-83-67.*


Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.38 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6